



ABDURAHMON JOMIY – XV ASR SHARQ TAFAKKURINING YIRIK NAMOYONDASI

*Axborot Texnologiyalari va
Menejmenti Filologiya fakulteti
Arab tili yo‘nalishi
O‘qituvchisi: Begmamatov A‘zamjon
Talaba: Abduvaxitova Zilola*

Anatatsiya: *Ushbu maqolada XV asrda yashab o‘tgan buyuk mutafakkir, shoir Abdurahmon Jomiyning bugungi kunda ham oz‘dolzarbligini yo‘qotmagan, ruhiy tinchlik va madaniy bag‘rikenglikni targ‘ib qiluvchi asarlari haqida o‘rganiladi. . Jomiy ijodi nafaqat she‘riyat va tasavvufiy falsafani birlashtirgan, balki zamonaviy jamiyatda tolerantlik va bag‘rikenglik g‘oyalarini rivojlantirishda ham muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda .*

Kalit so‘zlar: *so‘fiy, ijod, risola, qofiya, san‘at, she‘riy jumboq, Hirot, Samarqand, Naqshbandiya, meros, doston, falsafa.*

Kirish

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimiz merosini chuqur tadqiq etish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirildi. So‘nggi yillarda matnshunoslik sohasida insoniyat adabiy merosining ajralmas qismiga aylangan o‘zbek xalqi yozma merosi ustida amalga oshirilgan tadqiqotlar nashri dunyo afkor ommasiga mazkur manbalarning badiiy va ilmiy qimmatini ko‘rsatish barobarida, yosh avlodni ajdodlar merosiga vorislik, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosi tadqiqi va targ‘ibi bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilganini alohida qayd qilish lozim.

XV – asr Temuriylar davri madaniy va ma‘rifiy yuksalishida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy tasavvufiy-falsafiy, insonparvarlik adolat va axloqiy komillik g‘oyalari bilan yetakchilik qilgan. Ularning falsafasi



tasavvufning naqshbandiya tariqati, inson taqdiriga befarq qaramaslik va hukmdorlarni adolatga chorlash ustiga qurilgan bo‘lib, bu g‘oyalar ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka xizmat qilgan.

Asosiy qism

Forsiy tilda ijod qilgan shoir, mutafakkir, mutasavvif Jomiyning asl ism-sharifi Abdurahmon Nuriddin ibn Ahmad 1414-yil 7-noyabrda Nishopurning Jom shahrida tavallud topgan. Fors-tojik adabiyotining eng yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning adabiy merosi Sharq adabiyoti va tasavvuf falsafasida muhim o‘rin egallaydi. U o‘zining nafis she‘riyati, chuqur ma‘rifiy asarlari va tasavvufiy qarashlari bilan Temuriylar davri adabiyot va madaniyatning gullab-yashnashiga o‘z hissasini qo‘shgan. va umrining ko‘p qismini Hirot shahrida o‘tkazgan. U yoshligidanoq ilm-fan va tasavvuf yo‘lida tahsil olgan, Samarqandda ham dars bergan. Naqshbandiya tariqasining yetakchi shayxlaridan biri sifatida tanilgan Jomiy o‘z hayotini ruhiy poklanish va ilmiy ijodga bag‘ishlagan. Abdurahmon Jomiy Hirot naqshbandiylik tariqatining piri va murshidi bo‘lgan. Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiy o‘zlariga pir va ustoz deb bilishgan.

Jomiy Madrasa yoshidan ancha erta Hirotidagi „Dilkash“ (Navoiy ma‘lumotiga ko‘ra, „Nizomiya“) madrasasiga kirib, o‘z davrining taniqli til, adabiyot olimlari va mudarrislari qo‘lida tahsil olgan. Shu davrdayoq u arab tilini mukammal o‘rgana boshlagan. Keyinroq Jomiy o‘z bilimni oshirish uchun Samarqandga keladi va Ulug‘bek madrasasida buyuk falakiyotshunos Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, fiqhshunos Fazlulloh Abullays kabilardan ta‘lim oladi. Bu vaqt davomida u til, adabiyot, riyoziyot, falakiyot, falsafa, huquqshunoslik fanlari, din asoslari, hadis va tafsir ilmlarini ham chuqur o‘rganadi, olimlarning turli mavzulardagi munozara va mubohasalarida qatnashib, yetuk olimligi bilan tanila boshlaydi. Jomiy Hirotga qaytgach, tasavvuf yo‘liga kirishni, o‘z bilim va faoliyatini shu yo‘lga, qolaversa, ijodga, ilm-fanga bag‘ishlashni afzal ko‘radi. U o‘ziga pir qilib Shayx Sa‘diddin Koshg‘ariy tanlaydi, Hirotning jome masjidida uning suhbatlarini t



inglaydi. Sa'diddin Koshg'ariy tasavvufda Muhammad Naqshband sulukiga mansub edi. Jomiy mashhur sufiylar bilan yaqindan muloqotda bo'ladi. Muhyiddin ibn al-Arabiyning asarlarini mutolaa qiladi. Ba'zi olimlar Jomiy asarlarining umumiy soni 100 ga yaqin deb taxmin qiladi. Navoiy "Hamsat ul-mutahayyirin"da uning 38 asarini nomma-nom sanab ko'rsatadi. Jomiy asarlari falsafa, tasavvuf, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, san'at sohalariga hamda nazm va nasrning har xil janrlariga oid. Uning ijodiy faoliyati ko'p qirrali bo'lsa ham, u sharq xalqlari madaniyati tarixida ko'proq genial shoir va mutafakkir – olim sifatida tanilgan. Bu jihatdan uning epik va lirik merosi g'oyat diqqatga sazovordir. So'nggi asr adabiyotshunoslari haqli ravishda uni fors-tojik adabiyotining ilk taraqqiyot davridagi (10–15-asrlar) buyuk mutafakkir-ijodkor deb ataydi.

Jomiy asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega bo'lib, ularda shoir islom dini va sharq falsafasining bir qator masalalarini o'z qarashicha talqin etadi, tasavvufning 15-asrdagi yirik arbobi sifatida o'z fikr-mulohazalarini bayon qiladi. Bunga uning "Naqshi fusus" ("Ma'nolar naqshi"), "Shavohidi nubuvva" ("Payg'ambarlikka dalillar"), "Sharhi qasidayi "Toiya" ("Radifda "to" harfidan foydalanib yozilgan qasida sharhi"), "Naqdi nusus" ("Matnni tanqid"), "Sharhi qasidayi "Hamriya" („Hamriya“ qasidasi sharhi"), Naqshbandiya ta'limoti haqida risola, "Vohid" atamasi haqidagi risola", "Zikr shartlari haqida risola", "Haj qilish yo'llari haqida risola" kabi bir qancha asarlarini shu guruhga kiritish mumkin.

Hulosa

Jomiy faqatgina Navoiyning piri emas, balki butun o'zbek adabiyotining ham eng yorqin yulduzlaridan edi. Navoiy Jomiy haqidagi bitiklarida – "u turkiy tilda she'r yozmasa ham, bu tildagi asarlarni yaxshi tushunar va ular haqida o'z fikrini ayta olar edi" deb yozadi. Abdurahmon Jomiy Temuriylar davri ilm-fani va adabiyotining faxri, Sharq she'riyatini yangi yuksaklikka ko'targan so'z san'atkorlaridan biridir. U bir necha asrdirki, Navoiy bilan yonma-yon, o'zbek shoir va adiblariga ham ustozlik qilib kelmoqda va doim shunday bo'lib qoladi. O'zbekiston va Tojikistonning bir qancha jamoa xo'jaliklari, ko'chalar, maktablar



„Jomiy“ nomi bilan ataladi. 1970-yil Samarqand shahrida Navoiy bilan Jomiy haykali o'rnatilgan.

Jomiy tasavvufiy-neoplatonik falsafasi sharq adabiyotining universal ko'prigi bo'lib, bugungi globallashuv va madaniy dialog sharoitida ruhiy salomatlik va jamiyatdagi tinchlikni targ'ib qiluvchi doimiy manba ekanligi tasdiqlandi. Shunday qilib, Abdurahmon Jomiy ijodi unutilmas iz qoldirgan va kelajak avlodlar uchun ibratli saboq hamda ilhom manbai bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- TANLANGAN ASARLAR, TOSHKENT, 1970; ISKANDAR XIRADNOMASI. TOSHKENT, 1978; YUSUF VA ZULAYHO, TOSHKENT, 1983; RISOLAI MUSIQI, TOSHKENT, 1997.
- SHOMUTSAMEDOV SH. M., FORSTOJIK ADABIYOTI KLASSIKLARI, T., 1963; HAYITMETOV A., ABDURAHMON JOMIY, TOSHKENT, 1989.
- ABDUQODIR HAYITMETOV, SHOISLOM SHOMUHAMEDOV. O'zME. BIRINCHI JILD. TOSHKENT, 2000.